

ZIDDIYATLI HAYOTIY VAZIYATLARDA SHAXSNING PSIXOLOGIK HOLATLARINI O‘RGANISH MASALASI

M.L. Aripova

dotsent, O‘zDJTU Pedagogika va psixologiya kafedrası

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsning rivojlanishi, uning psixologik tabiatini o‘rganish, ziddiyatli hayotiy vaziyatlarda shaxsning psixologik holatlarini tadqiq etish masalasi bo‘yicha fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs rivojlanishi, psixologik holat, hayajon. shaxsning psixologik tuzilmasi, ta’sir, yo‘nalishlar, bilish qobiliyati, munosabat, stress, omil, muhit, xulq-atvor.

Jahonda psixologik ta’limning paradigmal transformatsiyasi kontekstida shaxsning psixologik tuzilmasi komponentlari (yo‘nalganlik, ijtimoiy tajriba, ruhiy jarayonlar, ruhiy jarayonlarning individuallik xususiyati, biopsixologik o‘ziga xoslik, psixologik xususiyatlar, psixologik holatlar)ni rivojlantirish imkoniyatlari (tizimli rejalashtirish, didaktik ta’sirlar majmui, o‘zaro muvofiqlashtirish)ni innovatsion yondashuv va didaktik shart-sharoitlar uzviyligini ta’minlash asosida takomillashtirish bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlar: shaxsning teran psixologiyasi (psixoanaliz, individual psixologiya, gumanistik psixoanaliz, nevrotik mojarolarning psixoanalitik nazariyasi, shaxs analitik nazariyasi, ego psixoanaliz, tranzaksiya tahlili, gumanistik psixologiya (shaxsning gumanistik nazariyasi, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv), ekzistensial psixologiya (shaxs tuzilmasi tahlillari, hayotning ma’nosini izlash va anglash psixologiyasi), shaxs psixologiyasining kognitiv va ijtimoiy-kognitiv yo‘nalishlari (shaxsni shakllantirish nazariyasi, shaxsning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi), xulq-atvor psixologiyasini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari va izlanishlar olib borilmoqda.

Shaxsning shakllanishi, xulq-atvori tabiati, emotsional-motivatsion sohasi, psixologik holatlari, individual-tipologik xususiyatlari, qadriyatlari yo‘nalishi, xarakteri, o‘ziga xosligi, bilish qobiliyati, o‘z-o‘zini rivojlantirishi, imkoniyatlarini namoyon etishi, his-tuyg‘u va ichki kechinmalarini o‘rganish va baholash masalalari zamonaviy psixologik tadqiqotlarning asosiy mazmunini tashkil etadi. Zamonaviy psixologiyada shaxsning shakllanishi, muomala va shaxslararo munosabatlar, psixologik holatlar, tuzilishi, mexanizmlari va

boshqalarni tushunish uchun ko‘plab yondashuvlar mavjud. Shaxsning psixologik holati va xususiyatlari bo‘yicha mamlakatimiz psixolog olimlari Sh.R.Barotov, E.G.G‘oziyev, M.G.Davletshin, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, D.G. Muhamedova, Z.T.Nishanova, A.I.Rasulov, V.A.Tokareva, M.M.Mamatov, B.M. Umarov, B.R.Qodirov, O.E.Hayitov va boshqalar muayyan tadqiqotlar olib borishgan. Shaxsning psixologik tabiatini o‘rganish uni har tomonlama tadqiq etish metodikalari tizimini shakllantirdi. Shaxsni, uning qobiliyatini, stresslarga bardoshligini rivojlantirish metodikalarini tadbiq qilish uzluksiz, uzoq muddatli va doimiy o‘rganishni taqozo etuvchi tadqiqot muammosi sanaladi.

Hozirgi zamon jamiyati sharoitida shaxsning hayotiy faoliyatidagi turli kechinmalar ijobiy yoki salbiy omillarning davriy, ba’zan juda uzoq muddatli va kuchli ta’siri bilan uzviy bog‘liq. Shu munosabat bilan ruhiy taranglik yoki hayajonli vaziyatlarda shaxs xulq-atvorining namoyon bo‘lishiga oid tadqiqotlarga qiziqish katta va insonning turli vaziyatlarga moslashuv imkoniyatlari, hayotiy faoliyatini muvofiqlashtirish, ziddiyatli qiyin psixologik holatlarda zamonaviy odamning tasavvurlari va xatti-harakatlarini doimiy ravishda o‘rganishga ehtiyoj tug‘iladi.

Zamonaviy kognitiv psixologiyada ziddiyatli holatlarni tadqiq etish alohida o‘rin tutadi. Shaxsning ruhiy hodisalar haqidagi bilimlari qanday tarzda to‘planishi va bu ularning mental doirada qanday taqdim etilishi hamda tuzilishini o‘rganish hozirgi zamon kognitiv psixologiya fanining dolzarb vazifalaridan biridir. Ziddiyatli hayotiy vaziyatlardagi psixologik holatlarni o‘rganish alohida ahamiyatga ega, chunki ruhiy holat - inson psixikasining individual sub’yektiv hodisasi umumiy qonuniyatlarini aniqlash, o‘rganish olam manzarasi shakllanishi qonuniyatlarini va u haqidagi tasavvurlar tuzilishi mohiyatini ham ochib berishi mumkin. Ziddiyatli hayotiy vaziyatlarda shaxsning psixologik holatlarini o‘rganish muammosini yechishga turli yondashuvlarning shakllanganligiga qaramasdan fanning bu sohasidagi ko‘plab masalalar hali ham o‘zining yechimini topganicha yo‘q. Shaxsning qattiq hayajonli vaziyatlardagi xulq-atvori yoki ziddiyatli hayotiy vaziyatlardagi psixologik holatlar xususiyatlarini ochib beradigan nazariya va konsepsiyalarda xavf-xatar va tahdidni baholashga, undagi adaptiv harakatlar uchun vaziyatning relevant tasviri(obrazi)ni qurishga imkon beruvchi bilish jarayonlari, psixologik holatlarning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Shu sababli, shaxsning tevarak-atrof,

muhit, insonlar, voqea va hodisalar, qisqacha aytganda, olam haqidagi ma’lumotlarni qanday qabul qilishi, uning inson ruhiyatida qanday namoyon bo’lishi, qanday egallanishi va xotirada qanday saqlanishi, o’zgartirilishi va saqlanishi, axborotni qayta ishlash jarayonlari uning xulq-atvoriga, tabiatiga, shu jumladan, ziddiyatli qiyin hayotiy vaziyatlarda faoliyatini tartibga solish va o’z-o’zini boshqarishi, muvoqlishtirishiga qanday ta’sir qilishi haqidagi savollarga javob topishga imkon beruvchi bilish jarayonlarini, psixologik holatlarni o’rganish dolzarbdir.

O’zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda shaxsning rivojlanishi, ruhiy holatlari, kechinmalar, ma’naviy qiyofasini o’rganish bilan bog’liq holda, ruhiy holatlarni tadqiq etish, o’rganish masalasiga bag’ishlangan izlanishlar juda kam. Ammo ayrim tadqiqotlar natijalari, shuningdek, shaxs va uning tuzilmasi, xarakteri, psixologik xususiyatlarini o’rganish bo’yicha taklif etilgan metodikalardan muayyan kasb egalari, jumladan, talabalarning shaxsiy-kasbiy xususiyatlarini tashxislashda foydalanish imkoni mavjud (Sh.Saparov, A.Jabborov, Yu.M.Asadov). O’zbek psixolog olimlaridan E.G’.G’oziyevning “Shaxsning fidoiylilik xususiyatlarini o’rganish” so’rovnomasi, iqtidorli bolalarni tanlash metodikalari (B.R.Qodirov, K.B.Qodirov), G’.B.Shoumarov, V.M.Karimovalarning shaxsni o’rganishning ijtimoiy-psixologik asoslariga oid ilmiy izlanishlari natijalari, Z.T.Nishonovanning tadqiqotlari asosida olingan ma’lumotlar shaxs shakllanishining muayyan qirralarini, xususan, psixologik holatlarini o’rganishga xizmat qiladi. Xulosa shuki, ziddiyatli hayotiy vaziyatlarda shaxsning psixologik holatlarini o’rganish, salbiy his-hayajonlardan himoyalanih, ularni yengish, xulq-atvoriga ta’sirini nazariy jihatdan o’rganish, tahlil etish va ayni muammo bo’yicha tajribaviy tadqiqotlarning natijalari mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos keladigan kompetentli kadrlar tayyorlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avezov O.R. va boshq. Shaxs psixologiyasi. B: 2019.
2. Aripova M.L. Methodological and philosophical aspects of formation of constructive as well as technical knowledge. epra International Journal of Research and Development (IJRD) November 2021 - Peer Reviewed Journal. – P. 236-239.

3. Журавлева Н.А. Психология социальных изменений: ценностный подход. - М.: Институт психологии РАН, 2013.
4. Капустина А.Н. Многофакторная личностная методика Р.Б. Кеттелла. – СПб.: Речь, 2001.
5. Моросанова В.И., Коноз Е.М. Стилевая саморегуляция поведения человека. // Вопросы психологии. 2000. №2. - С. 118-127.